



## Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Kimyo fani 9-sinf

23.10.2024

### 1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Quyidagi birikmalardan qaysi biri ion va kovalent bog`ga ega?
- A) CO<sub>2</sub>    B) NaCl    C) Na<sub>2</sub>O    D) Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>
2. Oksidlanish-qaytarilish reaktsiyasida oksidlovchi va qaytaruvchi moddaning oldidagi koefitsientni toping:  
 $\text{NaCrO}_2 + \text{Br}_2 + \text{NaOH} \rightarrow \text{Na}_2\text{CrO}_4 + \text{NaBr} + \text{H}_2\text{O}$
- A) 2:3    B) 8:6    C) 3:2    D) 3:4
3. Qaysi javobda elementlar elektromanfiylik oshib borish tartibida joylashgan?
- A) Na, F, O, N    B) Na, O, F, N    C) Na, N, O, F    D) N, O, F, Na
4. D. I. Mendeleyev elementlarining davriy sistemasidan foydalanib, asoslarning qaysi biri kuchliroq dissotsiyatsiyalanishini aniqlang: Mg(OH)<sub>2</sub> yoki Sr(OH)<sub>2</sub>.
- A) Sr(OH)<sub>2</sub>    C) Mg(OH)<sub>2</sub>    C) Mg(OH)<sub>2</sub> va Sr(OH)<sub>2</sub>    D) to`g`ri javob yo`q
5. Mineral Na<sub>2</sub>Ca<sub>4</sub>X(PO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> formulaga ega, bu erda X noma`lum. Quyidagilardan qaysi biri X bo'lishi mumkin?
- A) F<sup>-</sup>    B) Ba<sup>2+</sup>    C) Ag<sup>+</sup>    D) SO<sub>4</sub><sup>2-</sup>
6. 1,0 kg og'irlikdagi C<sub>2</sub>H<sub>4</sub>O namunasida nechta atom mavjud?
- A)  $1,4 \times 10^{22}$     B)  $9,6 \times 10^{22}$     C)  $1,4 \times 10^{25}$     D)  $9,6 \times 10^{25}$
7. 310,0 K va 101,0 kPa da o'lchangan bir mol noma'lum gazning hajmi 25,52 litrni tashkil qiladi. 21,66gr azotning ushbu sharoitdagi hajmini aniqlang.
- A) 16,51 l    B) 19,73 l    C) 25,52 L    D) 33,01 l
8. Quyidagi elementlardan qaysi biri eng yuqori 7-ionlanish energiyagasiga ega?
- A) Mg    B) Cl    C) P    D) S
9. A elementida 3 ta valent elektron, B elementida esa 6 ta valent elektron mavjud. A va B elementlari davriy sistemaning bir xil davrida joylashgan. A va B elementlar birgalikda hosil qilishi mumkin bo'lgan birikmaning formulasi qanday?
- A) AB    B) A<sub>2</sub>B<sub>3</sub>    C) AB<sub>2</sub>    D) A<sub>2</sub>B
10. Quyidagi qaysi juftliklarni har biridan 0,1 mol\*l<sup>-1</sup> eritmasi aralashtirganda cho'kma hosil qiladi?
- A) AgNO<sub>3</sub> va Ba(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>    B) K<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> va Cu(NO<sub>3</sub>)<sub>2</sub>    C) NaOH va CuCl<sub>2</sub>    D) CuCl<sub>2</sub> va NH<sub>4</sub>NO<sub>3</sub>

### 2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Keltirilgan moddalarni belgilangan miqdorda aralashtirganda, qaysi variantda eng ko'p CO<sub>2</sub> ajraladi?
- A) 0,3 mol CuCO<sub>3</sub> va 0,1 mol H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>    B) 0,2 mol CuCO<sub>3</sub> va 0,3 mol HCl
- C) 0,2 mol CuCO<sub>3</sub> va 0,2 mol H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>    D) 0,3 mol CuCO<sub>3</sub> va 0,3 mol HCl
12. 0,39 mol magniy xlorid 1,5 litr suvda eritiladi. Ushbu eritma tarkibidagi xlorid ionlarining konsentratsiyasi qanday?
- A). 0,20 mol\*l<sup>-1</sup>    B) 0,26 mol\*l<sup>-1</sup>    C) 0,39 mol\*l<sup>-1</sup>    D) 0,52 mol \* l<sup>-1</sup>
13. Natriy sulfit (Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>) xlorid kislota bilan reaksiyaga kirishib, natriy xlorid, oltingugurt dioksidi va suv hosil qiladi. 32,6 g natriy sulfit bilan to'liq reaksiyaga kirishish uchun 10,1 mol\*l<sup>-1</sup> xlorid kislotasidan qancha (ml) kerak?
- A) 12,8 ml    B) 17,1 ml    C) 25,6 ml    D) 51,2 ml



Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarini saralash boshqarmasi



## Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Kimyo fani 9-sinf

23.10.2024

14. 1000 g X elementidan 1620 g  $\text{XF}_6$  ni olish mumkin. Quyidagi elementlardan qaysi biri X elementi bo'lishi mumkin?

- A) W    B) Se    C) Mo    D) Rh

15. Yod monoxloridi ( $\text{ICl}$ ) uglerod-uglerod qo'sh bog'lari bilan reaksiyaga kirishadi (har bir qo'sh bog' uchun bir mol  $\text{ICl}$ ). Agar molyar massasi 304,5 gr/mol bo'lgan 0,105 g modda 0,224 g  $\text{ICl}$  bilan to'liq reaksiyaga kirishsa, moddada nechta uglerod-uglerod qo'sh bog' mavjud?

- A) 2    B) 3    C) 4    D) 5

16. Berlin lazuri -  $\text{Fe}^{2+}$ ,  $\text{Fe}^{3+}$  va  $\text{CN}^-$  ionlarini o'z ichiga olgan quyuq ko'k pigmentdir $^-$ . U  $\text{Fe}_7(\text{CN})_{18}$  formulasiga ega. Formula tarkibida nechtadan  $\text{Fe}^{2+}$  va  $\text{Fe}^{3+}$  ionlari mavjud?

- A) 0  $\text{Fe}^{2+}$  va 6 Fe    B) 3  $\text{Fe}^{2+}$  va 4  $\text{Fe}^{3+}$     C) 4  $\text{Fe}^{2+}$  va 3  $\text{Fe}^{3+}$     D) 5  $\text{Fe}^{2+}$  va 2  $\text{Fe}^{3+}$

17. Quyidagi moddalardan qaysi biri qaynash haroratining oshishi tartibida joylashgan?

- A)  $\text{CO}_2$ ,  $\text{PCl}_3$ ,  $\text{CaO}$     B)  $\text{PCl}_3$ ,  $\text{CaO}$ ,  $\text{CO}_2$     C)  $\text{CaO}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{PCl}_3$     D)  $\text{CaO}$ ,  $\text{PCl}_3$ ,  $\text{CO}_2$

18. Etanaminning to'liq yonishida ( $\text{C}_2\text{H}_5\text{NH}_2$ ) karbonat angidrid, azot va suv hosil bo'ladi. 1,00 mol etanaminni to'liq yoqish uchun qancha kislород kerak?


- A) 1,75    B) 3,50    C) 3,75    D) 5,50

19. Kalsiy karbonat va natriy xlorid aralashmasi massasi bo'yicha 10% uglerodni o'z ichiga oladi. Namunadagi natriy xloridning ulushi qancha?


- A) 10%    B) 17%    C) 50%    D) 83%

20.  $\text{NO}_2$  ning Lyuis bo'yicha strukturasini aniqlang


A)




B)



C)




D)



### 3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Havo tarkibidagi karbonat angidrid ulushini aniqlash uchun 10,00 l havo namunasi  $\text{Ca}(\text{OH})_2$  eritmasi yoki ohakli suv orqali doimiy ravishda yuboriladi va quyidagi reaksiya bo'yicha kalsiy karbonat cho'kmasini hosil qiladi(havoning zichligi 4,37gr/ml)



Cho'kma tushgndan so'ng, qattiq moddalar filtrlanadi, yuviladi va quritiladi, va uning massasi 11,05 g ni tashkil qildi.  $\text{CO}_2$  ning havodagi ulushini aniqlang.

22. Sulfat kislota suvda eritilganda yuzaga keladigan issiqlik hodisalari ammoniy nitrat suvda eritilgandagi issiqlik hodisalaridan qanday farq qiladi?




Fan olimpiadalarini o'tkazish va iqtidorli o'quvchilarini saralash boshqarmasi



## Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Kimyo fani 9-sinf

23.10.2024

23. 100 kPa bosim ostida argon gazini o'z ichiga olgan 1 l idish - 150 kPa bosim ostida neon gazini o'z ichiga olgan 2 l idishga naycha va kran bilan biriktiriladi.



Kran ochilganda va gazlar aralashganda, idishlardagi so'ngi bosim qanday bo'ladi?


24. T haroratidagi molekulaning o'rtacha kinetik energiyasi quyidagicha aniqlanadi: kinetik energiya =  $kT$ , bu erda  $k = 2,07 \times 10^{-23} \text{ J} \cdot \text{K}^{-1}$  va kinetik energiya tezlik bilan bog'liqligini hisobga olsak: kinetik energiya =  $mv^2/2$ , xona haroratida o'rtacha havo molekulasining taxminiy tezligi qanday?

25. A moddasi B va C ga parchalanadi, buni quyidagi reaksiya tasdiqlaydi:



A ning ma'lum miqdori belgilangan hajmdagi yopiq idishga joylashtiriladi va tizim muvozanatga keladi. Agar reaksiyadan keyin idish ichidagi bosim 50% ga oshsa, x ning qiymati qanday?

26. Qaysi nuqta normal qaynash temperaturasini ko'rsatadi?



27. Og'irligi 9,736 g bo'lgan qo'rg'oshin oksidi namunasi qo'rg'oshin hosil qilish uchun ortiqcha uglerod oksidi bilan to'liq qaytarildi. Olingan gaz to'yingan ohak suvidan o'tkazildi, cho'kma quritgandan so'ng 6,636 g kalsiy karbonat ( $M = 100,09$ ) cho'kma aniqlandi. Ushbu qo'rg'oshin oksidining formulasi qanday (aniqroq qiymatlarni oling va qiymatlarni yaxlitlamaslikka harakat qiling)?

28. Qutbli bog'langan molekulalar quyidagicha belgilanadi – ya'ni  $\delta+$  va  $\delta-$  mos ravishda atomlardagi qisman musbat va manfiy zaryadlarni bildiradi. Asimetrik zaryad taqsimotiga ega molekulalar qutbli deb ataladi va ular umumiy dipol momentga egadir. Quyidagi fikrlarning qay biri to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

HF dipol momentiga ega.  To'g'ri  Noto'g'ri

$N_2$  dipol momentiga ega.  To'g'ri  Noto'g'ri

29.  $4^\circ\text{C}$  da suvning zichligi  $1,00 \text{ g ml}^{-1}$  ni tashkil qiladi.  $0^\circ\text{C}$  da muzning zichligi  $0,917 \text{ g ml}^{-1}$  ni tashkil qiladi. Og'irligi 7,92 g bo'lgan muz, dastlab  $0^\circ\text{C}$  haroratda eriydi va yakuniy harorati  $4^\circ\text{C}$  bo'lgan suyuq suv hosil qiladi. Bunda suvning hajmi qanday o'zgaradi?

30. O'z o'zidan sodir bo'lувчи reaksiya doimiy harorat va bosimda sodir bo'lishi uchun Gibbs erkin energiyasi ( $\Delta G$ ) manfiy bo'lishi kerak. Gibbs erkin energiyasi Gibbs tenglamasida ikkita termodynamik parametrni birlashtiradi:  $\Delta G = \Delta H - T\Delta S$ , bu erda  $\Delta H$  entalpiyaning o'zgarishi,  $\Delta S$  esa entropiyaning o'zgarishi.

Kimyoviy reaksiya o'z o'zidan sodir bo'lishi uchun  $\Delta H$  va  $\Delta S$  qanday bo'lishi zarur?

